

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI




2026

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru



I SON

**DEMOGRAFIYA VA
MEHNAT BOZORI**

2026-yil
1-son

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-
популярный журнал
Electronic popular science
journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quadratillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Zokirova Nodira Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, DSc., professor
Qurbonov Paxlavon Rustamovich, DSc, dotsent
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich, PhD
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Умурзаков Баходир Хамидович <i>Сурхондарё вилоятида меҳнат ресурслари ҳолати ва улардан самарали фойдаланиш.....</i> | 4 |
| Мамадалиева Хафиза Холдаровна, Баҳриддинова Муаззам Азам қизи <i>Аҳоли миграциясининг хорижий назариялари ва уларнинг илмий-таҳлилий ёндашувлари.....</i> | 14 |
| Хамдамов Шах-Жахон Раҳмат оглы , Буриев Иброхим <i>Искусственный интеллект и рост экономической сложности в Узбекистане.....</i> | 29 |
| Юлдашев Нурбек Нормуродович <i>Меҳнат мигрантлари фаолияти ва хориждан пул ўтказмаларидан самарали фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш.....</i> | 39 |
| Musayev Bekzod Murodovich <i>Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarining hududiy tashkil etilishi.....</i> | 53 |
| Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich <i>Methodological foundations of the impact of demographic trends on labor market in Uzbekistan.....</i> | 64 |
| Matkarimova Intizor Atabaevna <i>Demografik qarish, aholini ijtimoiy-iqtisodiy xolatiga ta'siri.....</i> | 75 |
| Bahriddinova Muazzam Azam qizi, Omanova Kamola Botir qizi <i>Sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlar asosida tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni mehnat bozoriga integratsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish.....</i> | 88 |
| Sobirova Muxlisa Sherali qizi <i>Valyuta kursi o'zgarishining asosiy sabablari va unga ta'sir etuvchi omillar.....</i> | 95 |
| Qilichov Ulug'bek Rustam o'g'li <i>O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari migratsiyasidagi ulushi...</i> | 104 |
| Саидова Севара Ёрмамат кизи <i>Совершенствование демографического и экономического развития Республики Узбекистан на основе инструментов цифровой трансформации.....</i> | 113 |
| Сайфиддинов Амирхон Давлатович <i>Урбанизация как фактор трудовой миграции и формирования регионального рынка труда в Узбекистане.....</i> | 122 |
| Асқарова Муҳаббат Иброхимовна <i>Меҳнат салоҳиятини шакллантиришда инсон омили: таснифланиши ва ўзига хос хусусиятлари.....</i> | 137 |

SUN'YI INTELLEKT VA INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHQI MIGRATSIYADAN QAYTGAN KADRLARNI MEHNAT BOZORIGA INTEGRATSIYALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi
ORCID: 0000-0002-3742-5622*

muazzambahriddinova@gmail.com

Omanova Kamola Botir qizi

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi stajyor-tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0003-1371-2509*

kamolabotirovna97@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan kadrlarni ichki mehnat bozoriga integratsiyalash jarayonini takomillashtirish masalalari sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlar asosida ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda qaytgan migrantlarning xorijda orttirgan kasbiy tajribasi va ko'nikmalari bilan ichki mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasida yuzaga kelayotgan nomuvofiqlik muammolari ochib berilgan. An'anaviy bandlik va qayta tayyorlash mexanizmlarining cheklangan imkoniyatlari asoslab berilib, sun'iy intellekt texnologiyalarining ushbu jarayonda vosita sifatidagi o'rni yoritilgan. Maqolada sun'iy intellekt asosida kasbiy salohiyatni baholash, individual qayta tayyorlash yo'nalishlarini aniqlash va mehnat bozori talablariga moslashtirish imkoniyatlari ilmiy asoslangan holda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlarni joriy etish qaytgan migrantlarning bandlik darajasini oshirish, inson kapitalidan samarali foydalanish va takroriy migratsiya jarayonlarini qisqartirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Xulosa qismida tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni mehnat bozoriga integratsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. tashqi mehnat migratsiyasi, qaytgan migrantlar, mehnat bozori, inson kapitali, sun'iy intellekt, innovatsion yondashuvlar, bandlik, qayta tayyorlash, kasbiy integratsiya, mehnat resurslari.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕХАНИЗМОВ ИНТЕГРАЦИИ КАДРОВ, ВЕРНУВШИХСЯ ИЗ ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ, НА РЫНОК ТРУДА

Бахриддинова Муаззам Азам кизи

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы
развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ*

Оманова Камола Ботир кизи

стажер-исследователь Научно-исследовательского центра "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ

Аннотация. В статье на основе научного анализа рассматриваются вопросы совершенствования механизмов интеграции кадров, вернувшихся из внешней трудовой миграции, в национальный рынок труда с использованием искусственного интеллекта и инновационных подходов. Раскрываются проблемы несоответствия профессиональных навыков и компетенций возвращающихся мигрантов требованиям внутреннего рынка труда. Обоснована ограниченная эффективность традиционных механизмов занятости и переподготовки кадров в условиях ускоренного технологического развития. Особое внимание уделено роли искусственного интеллекта как инструмента оценки профессионального потенциала, индивидуального профессионального ориентирования и адаптации возвращённых мигрантов к потребностям рынка труда. В статье доказано, что внедрение технологий искусственного интеллекта и инновационных подходов способствует повышению уровня занятости, более эффективному использованию человеческого капитала и сокращению повторной трудовой миграции. По итогам исследования сформулированы научно-практические предложения по совершенствованию механизмов интеграции возвращающихся мигрантов в рынок труда.

Ключевые слова. внешняя трудовая миграция, возвращённые мигранты, рынок труда, человеческий капитал, искусственный интеллект, инновационные подходы, занятость, профессиональная интеграция, переподготовка кадров.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING THE MECHANISMS FOR INTEGRATING RETURN MIGRANTS INTO THE LABOR MARKET**Bahriiddinova Muazzam Azam qizi**

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of Economic Development of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Omanova Kamola Botir qizi

Trainee researcher at the Research Center for "Scientific Foundations and Issues of Uzbekistan's Economic Development" under TSUE

Abstract. This article provides a scientific analysis of the mechanisms for improving the integration of workers returning from external labor migration into the domestic labor market based on artificial intelligence and innovative approaches. The

study identifies key challenges related to the mismatch between the skills and competencies acquired by return migrants abroad and the demands of the national labor market. The limitations of traditional employment and retraining mechanisms under conditions of rapid technological change are substantiated. Particular attention is paid to the role of artificial intelligence as a tool for assessing professional potential, individualized skills profiling, and adapting return migrants to labor market needs. The findings demonstrate that the application of artificial intelligence technologies and innovative approaches enhances employment opportunities, improves the efficient use of human capital, and reduces repeated labor migration. The article concludes with scientific and practical recommendations aimed at improving labor market integration mechanisms for returning migrants.

Keywords. external labor migration, return migrants, labor market, human capital, artificial intelligence, innovative approaches, employment, professional integration, workforce retraining.

Kirish.

Xalqaro mehnat migratsiyasi bugungi kunda migratsiya jarayonlarining eng muhim va xarakterli jihatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmog'da. Jahon miqyosida ushbu masalani o'rganayotgan tadqiqotchilar mehnat resurslarining davlatlar o'rtasida keng ko'lamda harakatlanishi, shuningdek, ishchi kuchidan doimiy yashash hududidan tashqarida foydalanish tendensiyalari kuchayib borayotganini ta'kidlaydilar. Xorijiy ishchi kuchining milliy mehnat bozoriga kirib kelishi bir vaqtning o'zida ijobiy hamda salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, qo'shimcha mehnat resurslarining mavjudligi iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish hajmlarini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchi tomondan esa, mahalliy aholi va chet ellik ishchilar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi, ish haqining pasayishi hamda ishsizlik darajasining o'sishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli milliy mehnat bozorini haddan ortiq mehnat taklifidan himoya qilish, aholi manfaatlarini ta'minlash, ish haqi o'sishini qo'llab-quvvatlash va ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati yuzaga keladi. Bu jarayonlar, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va yangi mehnat usullarini joriy etish bilan uzviy bog'liqdir. Biroq, milliy mehnat bozorini kimdan va qay darajada himoya qilish lozim, xorijiy ishchi kuchini jalb etish hajmlari va ulardan foydalanish ko'lami federal hamda mintaqaviy kesimda qay darajada aniq hisobga olinayotgani masalasi ochiq qolmoqda. Amalda qo'llanilayotgan ma'muriy statistika va boshqa kuzatuv ma'lumotlari boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun yetarlicha to'liq, ishonchli va dolzarb emasligi mutaxassislar tomonidan bir ovozdan ta'kidlanmoqda. Hozirgi globallashtirish sharoitida mehnat resurslarining xalqaro harakatchanligi kuchayib, tashqi mehnat migratsiyasi ko'plab mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Tashqi migratsiya, bir tomondan, ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan hududlarda bandlik bosimini yumshatish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, migratsiya jarayonining yakuniy bosqichi - qaytgan migrantlarning ichki mehnat bozoriga qayta integratsiyalashuvi bilan bog'liq murakkab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarning xorijda orttirgan bilim, ko'nikma va mehnat

tajribasidan ichki mehnat bozorida samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarning kasbiy salohiyati ichki mehnat bozori ehtiyojlariga to'liq mos kelavermaydi. Bu holat ko'nikmalar nomuvofiqligi, rasmiy bandlik darajasining pastligi hamda takroriy migratsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Mavjud bandlikka ko'maklashish va qayta tayyorlash mexanizmlari esa ko'pincha umumiy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, qaytgan migrantlarning individual kasbiy imkoniyatlarini to'liq hisobga olish imkonini bermaydi. Natijada, inson kapitalidan foydalanish samaradorligi pasaymoqda.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi mehnat bozorini tartibga solish jarayonlariga yangicha yondashuvlarni joriy etish imkonini bermoqda. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar mehnat bozori talablarini chuqur tahlil qilish, kadrlarning kasbiy salohiyatini baholash va ularni mos ish o'rinlariga yo'naltirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni mehnat bozoriga integratsiyalash jarayonida mavjud muammolarni tizimli va individual yondashuv asosida hal etish imkonini yaratadi.

Shu munosabat bilan tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni mehnat bozoriga integratsiyalash mexanizmlarini sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni ichki mehnat bozoriga samarali integratsiyalash jarayonini tahlil qilish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ushbu jarayonni takomillashtirish yo'llarini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Mazkur mavzu bir nechta ilmiy yo'nalishlar kesishmasida joylashgan: migratsiya nazariyasi, mehnat bozori iqtisodiyoti, reintegratsiya siyosati hamda raqamli texnologiyalar. Xalqaro migratsiya jarayonlari va qaytuvchi migrantlar masalasi bo'yicha International Organization for Migration (IOM) hisobotlarida reintegratsiya jarayoni iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillar birligida ko'rib chiqiladi. Tashkilot yondashuviga ko'ra, barqaror reintegratsiya faqat ish bilan ta'minlash bilan emas, balki inson kapitalini tiklash va moslashtirish bilan bog'liq. World Bank tadqiqotlarida qaytgan migrantlarning mehnat bozoriga moslashuvi ko'pincha ularning xorijda orttirgan ko'nikmalari va mahalliy mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan izohlanadi. Bu esa "skill mismatch" muammosini yuzaga keltiradi. International Labour Organization (ILO) esa qaytuvchi migrantlarni ish bilan ta'minlashda faol mehnat bozori siyosati (ALMP), kasbiy qayta tayyorlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini muhim omil sifatida ko'rsatadi.

Sun'iy intellektni mehnat bozori jarayonlariga integratsiya qilish masalasi esa so'nggi yillarda alohida tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) hisobotlarida AI asosidagi mehnat bozori prognozlash modellari, kompetensiyalarni baholash algoritmlari va raqamli bandlik platformalari samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, inson kapitali nazariyasi

asoschisi Gary Becker qarashlariga ko'ra, migratsiya inson kapitalining investitsion shaklidir. Qaytuvchi migrantlar esa orttirilgan bilim va tajriba orqali "transmilliy kapital"ni shakllantiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda asosiy bo'shliq shundaki, qaytgan migrantlarni integratsiyalash jarayonida sun'iy intellektdan tizimli foydalanish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ko'plab ishlar alohida bandlik dasturlari yoki migratsiya oqimlarini statistik tahlil qilish bilan cheklanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlar asosida tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni mehnat bozoriga integratsiyalash mexanizmlarini tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, aralash (mixed-method) yondashuvdan foydalanadi. Tadqiqotda kvantitativ usullar sifatida qaytgan migrantlar bandligi va ish haqi darajasini statistik tahlil qilish, ekonometrik modellar va AI asosida kompetensiyalarni moslashtirish algoritmlari qo'llanadi; sifat usullarida esa ekspert intervyular, fokus-guruhlar va muvaffaqiyatli reintegratsiya tajribalarini o'rganish kiritilgan. Shu bilan birga, sun'iy intellekt vositalari orqali mehnat bozoridagi vakansiyalar va ko'nikmalarni big data yordamida tahlil qilish, individual integratsiya trajektoriyasini ishlab chiqish ham tadqiqotning ajralmas qismi sifatida ko'zda tutilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global iqtisodiyotda mehnat resurslarining hududlararo harakatchanligi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda tashqi mehnat migratsiyasi ko'plab mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylangan. Migratsiya jarayoni, bir tomondan, ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan hududlarda bandlik bosimini yumshatsa, ikkinchi tomondan, qabul qiluvchi mamlakatlarda mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Biroq migratsiya jarayonining yakuniy bosqichi - tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarning ichki mehnat bozoriga integratsiyalashuvi yetarli darajada tizimli tashkil etilmaganligi sababli muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda [10].

Tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlar xorijiy mehnat bozorlarida muayyan kasbiy tajriba, mehnat intizomi va ishlab chiqarish madaniyatini egallagan bo'lsalarda, ularning mavjud salohiyati ichki mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmasligi holatlari keng tarqalgan. Bu nomuvofiqlik, avvalo, kasbiy ko'nikmalar tarkibining farqlanishi, texnologik darajadagi tafovutlar hamda mehnat bozoridagi institutsional cheklovlar bilan izohlanadi [6]. Natijada qaytgan migrantlarning bir qismi rasmiy bandlik tizimiga kira olmay, norasmiy sektorda faoliyat yuritishga yoki takroriy migratsiyani tanlashga majbur bo'lmoqda [4].

Mazkur holat inson kapitalidan foydalanish samaradorligini pasaytirib, mehnat bozorida yashirin ishsizlik va ijtimoiy beqarorlik xavfini kuchaytiradi. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot sharoitida mehnat bozorida yuqori malakali va moslashuvchan kadrlar ulushi ortib borayotgan bir paytda qaytgan migrantlarning mavjud ko'nikmalarini aniqlash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda [11]. An'anaviy bandlik va qayta tayyorlash tizimlari ko'pincha umumiy yondashuvlarga asoslanib, individual kasbiy salohiyatni chuqur tahlil qilish imkonini bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlarni tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni mehnat bozoriga integratsiyalash mexanizmlariga joriy etish zamonaviy va ilmiy asoslangan yechim sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalari mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, ko'nikmalar nomuvofiqligini kamaytirish va kadrlarni samarali joylashtirishda yuqori imkoniyatlarga ega ekanligi ta'kidlanadi [1]. Bunday texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, individual kasbiy profillarni shakllantirish va mos ish o'rinlarini aniqlash imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosida qaytgan migrantlarning ta'lim darajasi, xorijda orttirgan mehnat tajribasi, norasmiy ko'nikmalari va mehnat faoliyati tarixi kompleks tarzda tahlil qilinishi mumkin. Bu jarayon an'anaviy baholash usullaridan farqli ravishda sub'ektivlikni kamaytirib, real kasbiy salohiyatni aniqlashga xizmat qiladi [7]. Natijada qaytgan kadrlarni ichki mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ravishda yo'naltirish va ularning bandlik darajasini oshirish imkoniyati kengayadi.

Innovatsion yondashuvlar doirasida sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan raqamli platformalar qaytgan migrantlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini individuallashtirishga imkon beradi. Xalqaro tajribada bunday tizimlar orqali kasbiy yo'naltirish va qayta o'qitish dasturlarining samaradorligi sezilarli darajada oshgani kuzatilgan [2]. Bu holat inson kapitalini rivojlantirishda texnologiyalarning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi [5].

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish qaytgan migrantlarning mehnat bozoriga hududiy integratsiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Hududlar kesimida ishchi kuchiga bo'lgan talabni prognozlash va qaytgan migrantlarni mos hududlarga yo'naltirish orqali ichki mehnat bozorida nomutanosibliklarni kamaytirish mumkin [9]. Bu esa bandlik siyosatini yanada aniq va maqsadli amalga oshirish imkonini yaratadi hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga yordam beradi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlarga asoslangan integratsiya mexanizmlari tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarning inson kapitalidan samarali foydalanish, barqaror bandlikni ta'minlash va takroriy migratsiya oqimlarini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar mehnat bozorini boshqarishda zamonaviy, moslashuvchan va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan ilmiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarni mehnat bozoriga integratsiyalash jarayonida mavjud mexanizmlar zamonaviy mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmaydi. Ayniqsa, qaytgan migrantlarning xorijda orttirgan ko'nikmalarini baholash va ularni ichki mehnat bozoriga moslashtirishda tizimli yondashuv yetishmaydi. Bu holat inson kapitalidan foydalanish samaradorligining pasayishiga va takroriy migratsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelmoqda.

Sun'iy intellekt va innovatsion yondashuvlarga asoslangan mexanizmlarni joriy etish ushbu muammolarni kompleks va barqaror hal etish imkonini beradi. Bunday mexanizmlar qaytgan migrantlarning kasbiy salohiyatini aniqlash, individual

rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. Natijada bandlik siyosatining samaradorligi oshadi hamda mehnat resurslaridan foydalanish darajasi yaxshilanadi. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- birinchidan, tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlar bo'yicha yagona raqamli axborot bazasini shakllantirish va uni sun'iy intellekt asosida tahlil qilish mexanizmini joriy etish;

- ikkinchidan, qaytgan migrantlarning xorijda orttirgan rasmiy va norasmiy ko'nikmalarini baholashga qaratilgan sun'iy intellektga asoslangan kasbiy diagnostika tizimini yaratish;

- uchinchidan, mehnat bozori ehtiyojlari asosida individual qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

- to'rtinchidan, hududiy bandlik siyosatini takomillashtirishda sun'iy intellekt asosidagi prognozlash modellaridan foydalanishni kengaytirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tashqi migratsiyadan qaytgan kadrlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvini jadallashtiradi, inson kapitalidan samarali foydalanishni ta'minlaydi hamda migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. *Acemoglu, D., & Restrepo, P. Artificial Intelligence And Jobs: Evidence From US Labor Markets. Journal Of Political Economy, 128(6), 2188–2244. (2020)*
2. *OECD. Artificial Intelligence, Automation And Work. Paris: OECD Publishing (2021).*
3. *International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends For Migrant Workers. Geneva (2022).*
4. *World Bank. Reintegration Of Return Migrants: Evidence And Policy Options. Washington, DC (2020).*
5. *Mckinsey Global Institute (2019).*
6. *Dustmann, C., & Weiss, Y. Return Migration: Theory And Empirical Evidence. British Journal Of Industrial Relations, 45(2), 236–256. (2007)*
7. *Bessen, J.. AI And Jobs: The Role Of Demand. NBER Working Paper No. 24235. (2019)*
8. *Clemens, M. A., & Gough, K.. Skilled Emigration And Skill Creation. World Development, 112, 305–320. (2018)*
9. *European Commission(2021).*
10. *UN DESA. International Migration 2020 Highlights. New York.*
11. *Autor, D. H., Levy, F., & Murnane, R. J.. The Skill Content Of Recent Technological Change. Quarterly Journal Of Economics, 118(4), 1279–1333. (2003)*
12. *World Economic Forum. The Future Of Jobs Report. Geneva. (2023)*

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

